

**SAMARQAND VILOYAT PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

JALILOV ABDUFATTOH UZOQBOYEVICHNING

DARS ISHLANMASI

Samarqand-2014

DARSNING BLOK CHIZMASI

№	Dars bosqichlari	Qo'llash usuli	O'quvchi faoliyati	O'qituvchi faoliyati	Vaqt
1	Tashkiliy qism	Motivatsiya (diqqatni jamlash)	Tinglaydi, bajaradi	Bayon qiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	Savol – javob, aqliy hujum	Bajaradi	Nazorat qiladi, yo'naltiradi	8 daqiqa
3	Yangi mavzu tushuntiriladi	Savol – javob, tarqatma materiallar	Tinglaydi	Bayon qiladi, tushuntiradi	10 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Tarqatmalar, rasmlar, matn tuzish, savol – javob	Bajaradi	Nazorat qiladi	18 daqiqa
5	Baholash	Rag'bat kartochkalari	Eshitadi	Rag'bat, baholaydi	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	Klaster usuli (mashqlarni tushuntirish)	Eshitadi, savol-javob	Tushuntiradi, yo'nalish beradi	3 daqiqa

Darsning texnologik xaritasi

	Mavzu:	Soʻz turkumlari
1	Maqsad va vazifalar	Maqsad: a) taʼlimiy maqsad: oʻquvchilarga soʻz turkumi, soʻzlarni turkumlarga ajratishda eʼtiborga olinadigan xususiyatlar haqida bilim beraish; b) tarbiyaviy maqsad: oʻquvchilarda ilmga muhabbat uygʻotish; s) rivijlantiruvchi maqsad: oʻquvchilarda qiyoslash, taqqoslash asosida xulosa chiqarish koʻnikmlarini shakllantirish. Vazifalar: Oʻquvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uygʻotish, ularda mavzu asosida bilim va koʻnikmalarni shakllantirish, kengaytirish. Mavzuga oid berilgan savollarni oʻquvchilar tomonidan guruh holatida oʻzlashtirib olishlari hamda berilgan topshiriqlar qay darajada oʻzlashtirganini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.
2	Oʻquv jarayonining mazmuni	Soʻz turkumlari: mustaqil, yordamchi va alohida soʻzlarga ajralishi haqida, oʻquvchilarda tushuncha hosil qilish.
3	Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Metod: Suhbat, kichik guruhlarda ishlash; Uslul: induktiv taʼlim, mashq va topshiriqlar asosida; Shakl: matn bilan ishlash; Vosita: 6 – sinf ona tili darsligi, jadvallar; Nazorat: savol – javob; Baholash: 5 balli tizim asosida.
4	Kutiladigan natijalar	Oʻqituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida barcha oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirilishiga erishadi, oʻquvchilar faolligini oshiradi, oʻquvchilarda fanga

		nisbatan qiziqish uyg'otadi. O`quvchilar tomonidan darsni mustaqil o`rganish va uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o`rgatadi.</p> <p><b>O`quvchi: Yangi bilimni egallaydi. Mustaqil ijodiy ishlashni o`rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.
5	Kelgusi rejalar	O`qituvchi:</b> Pedagogik texnologiyalarni o`zlashtirish va darsda tadbiq etish, takomillashtirish, o`z ustida ishlash. Pedagogic mahoratni oshirish.</p> <p><b>O`quvchi: Mustaqil ishlashni o`rganadi. O`z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo`shimcha materiallar izlaydi, ularni o`rganadi. Do`stona muhitda, hamkorlikda ishlash ko`nikmasi shakllanadi.

Dars shiori: *Beshkdan qabrgacha ilm izla*

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

- a) O`quvchilar bilan salomlashish;
- b) Sinfdagi davomat bo`yicha sinf navbatchisini tinglash, sinf tozaligini ko`zdan kechirish.
- c) O`quvchilarni darsga tayyorlash, uyga berilgan topshiriqni so`rash va o`quvchilarni baholash.

O`qituvchi tashkiliy qismni tugatgach, kunning muhim yangiliklari haqida qisqacha to`xtalib o`tadi. Undan so`ng o`tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini aniqlash maqsadida mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriqlar asosida ishlanadi.

Dars quyidagicha so`zlar asosida boshlanadi: rostgo`ylik, halollik, mehnatsevarlik, haqgo`ylik, axloqli, farosatli, fahmli. Ya'ni **lug`at diktant** asosida quyidagi savollar bilan suhbat uyushtiriladi:

1. *Insonga xos xususiyatlar, xislatlar jami nima deb ataladi?*
2. *Mazkur fazilatlar kimlarga xos?*
3. *Shunday fazilatlarning o`zida mujassam etganlar qanday kishilar hisoblanadi?*


O`quvchilar mazkur xislatlar jami fazilat deb atalishini aytadilar. O`qituvchi fazilat (arabcha) ijobiy xislat, yaxshi sifat va xususiyatlar jami ekanligini tushuntiradi va yuqoridagi keltirilgan, ikkinchi savolni beradi. Ular bunday fazilatlarga ega inson komil inson, odobli va yaxshi inson hisoblanishini aytadilar. O`qituvchi ularni shunday fazilatlarni egallashga chaqiradi hamda xuddi shu fazilatlar kabi hayotdagi hamma narsa, voqea – hodisalar guruhlanishini uqtiradi.

So`ng rasmlardagi berilgan narsalarning nolarini bildiruvchi so`zlar guruhlarga ajratiladi, bunda asosga olingan belgi xususiyatlar, tomonlar aniqlanadi. Buni o`qiyuvchi quyidagi yo`naltiruvchi savollar asosida amalga oshiriladi:

1. *Rasmda qanday narsalar tasvirlangan?*
2. *Mazkur narsalarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?*
3. *Guruhlashda ularning qaysi o`xshash tomonlari e`tiborga olinadi?*



1 – topshiriq. Rasmlardagi narsalarni guruhlarga ajrating. Guruhlarda ajratishda narsalarning qanday o`xshash tomonlariga asoslanganingizni ayting.



2 – topshiriq. Rasmlardagi daraxtlarni guruhlarga ajrating. Guruhlarga ajratishda asos boʻlgan oʻxshash va farqli tomonlarni ayting.

Rasmda berilgan daraxtlarning nomlari ham xuddi shu tarzda guruhlanadi. Daraxtlarning nomlari meva berish va bermasligiga koʻra quyidagicha guruhlanadi:

1. Mevali daraxtlar: **olma, nok, olcha, shaftoli.**

2. Mevasiz daraxtlar: **terak, chinor, sada, tol** kabi.

So`ng o`qituvchi o`quvchilarni mavzuga oid nazariy xulosalarga olib kelish uchun quyidagi savollarni beradi.

1. *O`rganish uchun olingan turli narsa, voqea – hodisalar yig`indisi nima deyiladi?*

2. *To`plamni o`xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlariga bo`linishi nima deb ataladi?*

To`plamni o`xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlariga bo`lish tasnif deyiladi.

Har qanday fanning asosini to`plam va tasnif tashkil etadi.

Inson borliqdagi narsalar va voqea – hodisalarni guruhlariga ajratish - tasniflash asosida o`rganadi.

So`ng o`qituvchi o`quvchilarga jadvalda berilgan quyidagi so`zlarni guruhlariga ajratishni aytib o`tadi. Har bir guruhga umumiy nom berishadi.

Tepalik, tog`, qir, jarlik, adir, cho`qqi, g`or, tosh.
Tepalik va tekisliklar

Chumchuq,
musicha,
qaldirg`och,
olaqanot,
zag`izg`on.
Qushlar

Bug`doy, arpa,
sholi,
makkajo`xori.
Donli ekinlar

Shundan so`ng o`qituvchi o`tilgan mavzuni yakunlaydi.

Yangi mavzuning bayoni:

Dars mavzuga oid 1 – topshiriqni bajarish bilan boshlanadi. O`qituvchi topshiriq yuzasidan quyidagi savollarni beradi:

1. *Quyidagi so`zlar qanday so`roqqa javob bo`ladi?*
2. *Anglatgan ma`nbalarga ko`ra so`zlarni qanday guruhlariga ajratish mumkin?*

O`quvchilar savollar asosida topshiriq matnidagi so`zlarni so`rog`iga, anglatgan ma`nosiga ko`ra quyidagichatasnif qiladilar:

1. *Shaxsni bildiruvchi so`zlar:* bola, Ahmad, men, siz.
2. *Narsa – buyumni bildiruvchi so`zlar:* daftar, qalam, gul.
3. *Belgini bildiruvchi so`zlar:* oq, chiroyli, shirin.
4. *Harakatni bildiruvchi so`zlar:* o`qi, barmoq, olmoq kabi.

1 – topshiriqni bajarishda orttirgan tajriba asosida 2 – topshiriq bajariladi. O`quvchilar o`qituvchi yordamida berilgan so`zlarni jadvalga quyidagicha joylashtiradilar. Buni “**Kim zukko va chaqqon?**” o`yini tarzida bajartirish ham mumkin.

kim?	nima?	qanday?	necha? qancha?	qaysi?	nima qildi?
Salim	oltin	moviy	o`n	o`sha	ishladi
tog`a	gilos	yashil	ming	bu	

So`ng o`qituvchi quyidagi savollar asosida suhbat uyushtiradi.

1. *So`zlar qanday xususiyatlarga ko`ra bir – biridan farqlanadi?*
2. *So`zlar qanday xususiyatlarga ko`ra umumiylik kasb etadi?*
3. *So`zlarni tasniflashda, guruhlariga ajratishda qanday xususiyatlarga asoslaniladi?*

O`quvchilarning javoblari umumlashtiriladi va o`qituvchi tomonidan so`z turkumlari haqida quyidagilar aytiladi:

Soʻzlar oʻzi anglatgan lugʻaviy maʼnosi, soʻrogʻiga koʻra bir – biridan farqlanadi. Ayrim soʻzlar maʼnosi, javob boʻladigan soʻrogʻining bir xilligiga koʻra umumiylik kasb etadi. Soʻzlarning soʻrogʻi va qanday umumlashgan maʼno ifodalashga koʻra guruhlariga boʻlinishi soʻz turkumlari hisoblanadi.

Demak, tildagi soʻzlar maʼnosi va soʻrogʻiga koʻra **soʻz turkumlariga** boʻlinadi.

Soʻng oʻqituvchi “*Siz qanday soʻz turkumlarini bilasiz?*” – savoli asosida suhbatni davom ettiradi va 78 – mashq shartiga koʻra oʻquvchilar soʻzlarga mos soʻroq beradilar, maʼnosini aniqlaydilar va turkumlarga ajratadilar.

Namuna: U – akalari bilan ariq qazib suvsiz choʻlga suv chiqaribdi.
(*Ertak*)

Otlar: akalari, choʻlga, suv kabi.

79 – mashq “***Kim tez va toʻgʻri bajaradi?***” musobaqasi tarzida bajartiriladi. Oʻqituvchi oʻyinda mashq topshirigʻiga koʻra soʻzlarga soʻroq berib, ularni guruhlash lozimligini tushuntiradi va yozuv taxtasiga quyidagi jadvallarni chizadi. Toʻrt oʻquvchini chaqirib har biriga berilgan soʻzlarni soʻroqlarga mos tarzda jadvallarga joylashtirishni topshiradi. Oʻyin shartiga koʻra oʻziga berilgan savollarga javob beruvchi soʻzlar guruhini tez va toʻgʻri aniqlagan oʻquvchi gʻolib hisoblanadi.

Namuna:


kim?	qanday?	necha? qancha?	nima qildi? nima
nima?	qanaqa?	nechanchi?	qilmoqchi?
tabiat	harakatchan	minglarcha	shubhalanmoq

80 – mashqdagi harakatli soʻzlar oʻquvchilarning daftarlariga yozdiriladi va undagi soʻzlar yuqorida keltirilgan oʻyin tarzida soʻz turkumlariga ajratiladi.

Namuna: olimlarning xizmati mangu qoladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash

Dars so`ngida o`qituvchi o`tilgan yangi mavzuni mustahkamlaydi , o`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini aniqlaydi, o`quvchilarni rag`bat kartochkalari orqali baholaydi. Yangi mavzu tarqatma materiallar, testlar va savol - javob asosida mavzu mustahkamlab yakunlanadi.



TARQATMA MATERIALLAR

1 – bilet

Qanday soʻzlar soʻroqqa javob boʻladi?

2 – bilet

Qanday soʻzlar leksik maʼno ifodalamaydi?

3 – bilet

Qanday soʻzlar gap boʻlagi vazifasida keladi?

4 – bilet

Qanday soʻzlar soʻroqqa javob boʻlmaydi?

5 – bilet

Qaysi soʻzlar leksik maʼno ifodalamaydi?

6 – bilet

Qaysi soʻzlar gap boʻlagi vazifasida kelmaydi?

1 – savol

Soʻz turkumlari nima haqida bahs yuritadi?

- a. Soʻz va uning maʼnolari.
- b. Tildagi soʻzlarning maʼlum guruhlariga boʻlinishi.
- c. Gap va uning turlari.
- d. Nutq tovushlari.

2 – savol

Quyidagi variantlarda qaysi birida mustaqil soʻz turkumlari toʻgʻri koʻrsatilgan?

- a. Ot, sifat, son, olmosh, ravish, feʼl
- b. Ot, sifat, son, koʻmakchi, ravish, feʼl
- c. Ot, sifat, son, olmosh, feʼl, bogʻlovchi
- d. Ot, yuklama, koʻmakchi, sifat, son

3 – savol

Maʼlum bir soʻroqqa javob boʻlib, biror gap boʻlagi vazifasida keladigan soʻzlar qaysi nom bilan ataladi?

- a. Soʻz turkumlari deyiladi
- b. Mustaqil soʻz turkumlari deyiladi
- c. Yordamchi soʻzlar deyiladi
- d. Soʻz birikmasi deyiladi

4 – savol

Yakka holda ma'no anglatmaydi, gap bo'lagi bo'la olmaydigan, so'z turkumlari qaysilar?

- a. Modal, undov, taqlid so'zlar
- b. Ko'makchi, bog'lovchi, modal so'zlar
- c. Ot, sifat, son, olmosh
- d. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklama

5 – savol

Shunday so'zlar borki, ular na mustaqil, na yordamchi so'zlarga xos xususiyatlarga ega emas, ularni belgilang.?


- a. Modal, undov, taqlid so'zlar
- b. Ko'makchi, bog'lovchi, modal so'zlar
- c. Ot, sifat, son, olmosh
- d. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklama

UYGA VAZIFA


O`qituvchi o`tilgan yangi mavzuni mustahkamlagach, dars jarayonida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiradi. Shundan so`ng o`quvchilarga uyga vazifa beriladi. 81 – mashqqa ko`ra “*Ilm – tunganmas xazina*” mavzusida matn tuzish, undagi so`zlarni turkumlarga ajratish *uyga vazifa* qilib beriladi.

“Ilm – tunganmas xazina”

Ilm zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o`tkir qiladi. savobni gunohdan, halolni haromdan, pokni nopokdan ajratib beradi. Bilim kishining ko`nglini yoritadi, unga ro`shnolik beradi. Ilm insonni izzat va sharafiga yetkazuvchi vositadir.



RAG`BAT KARTOCHKALAR



XULOSA

O`quvchilar o`rganilgan mavzu yuzasidan, tildagi so`zlarning umumiy grammatik ma'no va vazifasiga ko`ra ma'lum guruhlarga bo`linishi va so`zlarni turkumlarga ajratish haqida bilim va ko`nikmalarga ega bo`ladi.

Mustaqil so`zlarning lug`aviy ma'noga ega bo`lishi, morfologik jihatdan o`zgarishi, gap ichida ma'lum bir gap bo`lagi bo`lib kelishi yoki undalma vazifasini bajarishi haqidagi ma'lumotlarni, o`quvchi yangi mavzu bilimga ega bo`lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ona tili darsligi (6 – sinf. Mualliflar: N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva 2009 – yilgi nashri)
2. Ona tili o`qituvchilar uchun metodik qo`llanma. (6 – sinf. Mualliflar: N.M.Uluqov, N.R.G`oyibnazarova)
3. Ziyokor (2013/6. Ilmiy, uslubiy, adabiy – badiiy jurnal)
4. Ziyokor (2011/3-son)
5. Til va adabiyot ta'limi (2010/2 - son)
6. O`zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi (Toshkent. 2006. Muallif M.A.Hamroyev)

**O`zbekiston Respublikasi jamoat xalq ta`limi portal WWW.ZiyoNET.uz
so`zlar turkumlari tasnifida yorddamchi so`zlar**

So`z va uni turkumlarga atasniflash masalasi o`zining uzoq tarixiga ega. Antic davrdan buyon bu masala tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri sifatida mutaxassislar diqqatini o`ziga jalb etib keladi. Qadimgi hind tilshunosligidan ozuqlangan arab tilshunosligida ham so`zlar ism, fe`l va harf (yordamchi) larga ajratilgan. Ushbu an`ana o`zbek tilshunosligiga ham ta`sir etib, shunday tasnif XX asrda qadar yaratilgan ilmiy asarlarda o`z ifodasini topgan. XX asrning birinchi choragidan boshlab, so`zlarni turkumlarga ajratish birmuncha aniqlandi. Xususan, Fitratning “Sarf” asari (1930 yil)da ot va fe`ldan tashqari, sifat, son, olmosh, ravish, undov so`zlar, yordamchi so`zlar tadqiqiga ham keng e`tibor berildi.

So`zlarni turkumlarga ajratish qanchalik uzoq tarixga ega bo`lishidan qat`I nazar, bu masalada hamon qizg`in bahs – munozaralar to`xtagani yo`q. uning turlicha tasnif asoslari va shu asosdagi turli natijalari mavjud. So`zlarni turkumlarga ajratish masalasidagi bunday bahs – munozaralarning tug`ilishiga bosh sabab, bizning nazarimizdda, so`zning o`ziga yondashuvning, uning mohiyatini belgilashning xilma – xilligida, so`zning mohiyatini belgilashning xilma – xilligida, so`zning nima ekanligi, uning tabiati qanday ekanligi kabi masalalarga aniq javobning yo`qligidir.

Tilshunoslik tarixida morfema haqidagi nazariya paydo bo`lguncha, tilning markaziy birligi sifatida morfema e`tirof etilgunga qadar mutaxassislar diqqati so`zga qaratib kelindi. Boshqa barcha birliklar so`z asosida (so`zdan kichik birliklar va so`zdan katta birliklar) belgilandi. So`zlarni mustaqil va yordamchi so`zlarga ajratish an`anasi ham ana shu “so`zmarkaz”li qarashning natijasidir.

Til va adabiyoti ta'limi jurnali Kavsar Turdiyeva (Filologiya fanlari nomzodi) "*So`z turkumlarining she'riy tavsifi*" nomli she'riga

TAQRIZ

O`quvchilar ongida ona tili darslarida mavzu yuzasidan bilim va ko`nikmalarini hosil qilish uchun she'rlardan foydalanish yuqori samara beradi. Tushunarli, soda, ravon tilde yozilgan she'rlar ma'lumotlarni o`zlashtirishda katta ahamiyatga ega.

Kavsar Turdiyevaning quyidagi she'ri o`quvchilarda so`z turkumlari yuzasidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. o`quvchilar bu she'r orqali nazariy bilimlarni o`zlashtirish bilan bir qatorda ulardda ijodkorlik hislarini ham tarbiyalaydi. Kavsar Turdiyeva sifat haqidagi ma'lumotlarni chiroyli o`xshatishlar orqali o`quvchiga yetkazib bera olgan. Sifat haqidagi nazariy bilimlarni ot so`z turkumi bilan taqqoslagan holda soda usulda bayon qiladi. qisqa satrlarda bo`lsada sifat haqida mukammal ma'lumot berishga erishgan.

ONA TILI TESTLAR

1. **O`zbek tili qaysi tillar oilasi guruhiga mansub?**
 - A) Turkiy tillar oilasining guruhiga
 - B) Oltoy oilasining turkiy tillar guruhi
 - C) Eron oilasining hind yevropa guruhiga
2. **Orfagrafiya so`zining ma`nosi nima?**
 - A) To`g`ri so`zlash
 - B) To`g`ri talaffuz
 - C) To`g`ri yozilish.
3. **Qaysi gap bo`lagi bosh bo`lak hisoblanadi?**
 - A) To`ldiruvchi
 - B) Hol
 - C) Ega
4. **Olmosh necha turga bo`linadi?**
 - A) 2 ta
 - B) 7 ta
 - C) 4 ta
5. **Qaysi gap bo`lagi ikkinchi darajali bo`lak sanaladi?**
 - A) Hol
 - B) To`ldiruvchi
 - C) Aniqlovchi
 - D) Barcha javoblar to`g`ri
6. **Til fanning “Sintaksis” bo`limi til fanining qaysi tarafini tekshiradi?**
 - E) So`z turkumlarini
 - F) Tilning tovush tizimini
 - G) So`z birikmasi va gapni

7. **Fonetika tilshunoslikning qaysi tomonlarini o`rgnuvchi bo`lim hisoblanadi?**
- A) Nutq tovushlarini o`rganuvchi bo`lim
 - B) So`zning ma`noli qismlarini o`rganuvchi bo`lim
 - C) Imlo qoidolari haqidagi bo`lim.
8. **Qanday so`zlar bosh va ko`chma ma`noga ega bo`ladi?**
- A) Bir ma`noli so`zlar
 - B) Ko`p ma`noli so`zlar
 - C) Atamalar
9. **Qimmat so`zining antonimi bilan sinonim bo`la oladigan iborani belgilang.**
- A) Oshig`I olchi
 - B) Mehri baland
 - C) Suv tekin
10. **Bir ma`noli so`zlar qaysi qatorda berilgan?**
- A) Ko`z, qosh
 - B) Og`iz bosh
 - C) Yashil ravish
11. **Ko`p ma`noli so`zlar qatorini toping.**
- A. Tomir yoqa
 - B. Ota, ona
 - C. Yashil, pushti
12. **Aytilishi bir – biriga yaqin, ammo ma`nosi har xil so`zlar qanday nomlanadi?**
- A. Sinonim
 - B. Paronim
 - C. Omonim

13. Asr – asir, o`quv – uquv, tajriba – tarjima. Ushbu juftliklar leksikologiyada qanday nomlanadi?

A) Sinonimlar

D. Poronimlar

E. Antonimlar

14. Omonim so`zlar qaysi qatorda qo`llangan?

A) Sovuq, bosh, oltin

B) Yordam, ko`mak, madad

C) Yosh, zang, to`p

15. Tilning lug`at boyligi tilshunoslikning qaysi bo`limida o`rganiladi?

A) Fonetika

B) Morfologiya

C) Leksikologiya

Test javobi

S	1	2	3	4	5	6	7	8
J	B	B	C	C	D	C	A	B

S	9	10	11	12	13	14	15
J	C	C	A	B	B	B	C

Dars tahlili.

Ta'lim muassasasi nomi: Samarqand viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti.

Sana: 07.12.2013 yil. **Guruh:** II guruh. **Tinglovchilar soni:** 25 nafar
Qatnashdi: 25 nafar.

Darsning nomi: Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari.

O'qituvchining ismi va familiyasi: Akbayeva Zebiniso.

Darsni kuzatishdan maqsad: O'qituvchining dars o'tish mahoratini o'rganish.

Dars mavzusi: Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.

Darsning jihozlanishi, qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar va AKT vositalari: o'qituvchi dars jarayonida, ko'rgazmalai qurol vositalari mavjud hamda axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalandi.

Darsni o'tkazish usuli: Noan'anaviy va aqliy hujum.

Dars ishlanmasining borligi va bajarilish sifati: dars ishlanmasi mavjud, a[dars ishlanma sifati na'munali.

Sinf xonasining sanitariya gigiyenasi va darsga tayyorlik holati: auditoriya xonasining tozaligi talab darajasida.

O'qituvchining tashqi qiyofasi va darsga tayyorgarlik holati: o'qituvchining kiyinish madaniyati talab darajasida, o'qituvchi darsga puxta tayyorgarlik ko'rgan..

1. **Darsning tashkiliy qismi:** Darsning tashkiliy qismini o'qituvchi to'g'ri tashkil etdi. Tinglovchilar bilan salomlashdi, auditoriya tozaligini ko'zdan kechirdi, tinglovchilarning diqqatini jamlay oldi.
2. **Darsning asosiy qismi:** Mafkuraviy poligon – odamlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan har qanday g'oya yoki mafkurani mablag', ham zamonaviy

texnik vositalar bilan qurollantirib dunyodagi axborot va fikr oqimini o'z foydasi yo'lida boshqarib turadigan g'oyaviy mafkuraga aytiladi.

Glaballashuv – turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati va odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqligining kuchayishidir.

Prezident I.A.Karimovning “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asarida uch nafar kishini ma'naviy jasorat egasi deb ko'rsatgan.

- 1) Yaxyo G'ulomov
- 2) Zulfiya Isroilova
- 3) Ozod Sharofiddinov

3. **Darsning yakuniy qismi:** o'qituvchi o'tilgan mavzuni maqsadli ravishda yakunladi, mavzuni mustahkamladi.

4.1. Darsning yutuqlari: o'qituvchi yangi mavzuni yetarlicha ma'lumot bera oldi, yangi mavzu yuzasidan tinglovchilarning aktivligi faol. Dars ishlanmasi mavjud, darsning ko'rgazmali quroli to'g'ri tashkil etilgan.

4.2. Darsda kuzatilgan kamchiliklar:

4.3. O'tilgan dars to'g'risida umumiy xulosa, bildirilgan fikr, mulohazalar va uslubiy tavsiyalar: o'qituvchi darsdan ko'zlangan maqsadga erisha oldi, tinglovchilar o'zlari qiziqtirgan savollarning yechimini topa olishdi. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki o'qituvchi tinglovchilarni darsga jalb etdi, dars bahs – munozaraga boy bo'ldi.

Darsni kuzatgan tinglovchi (F.I.O., imzo):

Jalilov A.

Dars tahlili bilan tanishdim (F.I.O., imzo):

Akbayeva Z.

Samarqand viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining “Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari” fani oʻqituvchisi *Akbayeva Zeboning* oʻzaro kuzatilgan darsiga

XULOSA

Oʻqituvchining kasb – mahorati va dars berish qobiliyatini ijobiy baholayman, sababi oʻqituvchining tinglovchilarga dars berish mahorati taqsiinga sazovor.

Oʻqituvchi tinglovchilar diqqatini qiziqтира oldi, mavzuni yoritishda dalil va maʼlumotlarni hayotiy voqea hodisalar asosida tushuntirdi. Shu bilan birga oʻqituvchining nutq qobiliyati, hamda bir soʻz bilan aytganda oʻqituvchi oʻz kasbining fidoiysi ekanligi koʻrinib turibdi. Oʻqituvchi darsni mustahkamlash jarayonida, tinglovchilarni guruhlariga ajratib muommoli savol va topshiriqlar bilan yakunladi.

5 – sinf adabiyot darsligida keltirilgan shoir Sa'diy Sheroziyning

“**Guliston**” va “**Bo'ston**” nomli asariga

TAQRIZ

Bu asarlar haqida gapirishdan oldin ikki og'iz uning hayoti haqida ma'lumot beraylik. Chunki bu ikki asar uning o'z ko'rgan – kechirgan, eshitgan – bilgan voqealari asosida maydonga kelgan.

U Sherozda o'ziga to'q va ma'rifatli bir xonadonda o'sib ulg'aygan. Uzoq umr ko'rgan. Tug'ilgan yilini har xil (1184, 1189, 1203, 1210) ko'rsatadilar. 1292 – yilda vafot etgan. Umrining 20 yildan ko'prog'i sayohatda o'tgan. Afrikadan Xitoygacha, Hindistondan Farangistongacha kezib chiqqan. Musofirlikning, hatto asirlikning azoblarini ko'rgan. Bu sayohatlari asirlikning azoblarini ko'rgan. Bu sayohatlari davomida ko'rgan – bilganlarini umumlashtirib, sayqallab “Bo'ston” (1257 – yilda yozilgan) hamda “Guliston” (1258) asarlariga ixcham hikoyalar qilib kiritgan.

“Guliston” da shunday bir hikoyat keltiriladi.

DARVESH HIKOYATI

Bir darveshni ko'rdum kim, butun umri davomida bitta ham farzand ko'rmagan edi. So'ngroq ko'pdan ko'p duo va zorliqlar qilg'ondan so'ng xotini homilador bo'ldi.

Darvesh dedi:

- Agar olloh taolo menga bir o'g'il bersa, egnimdagi xilqadan boshqa barcha molimni darveshlarga nisor qilurman.

Itfiqo, xotini o'g'il tug'di. Va'daga muvofiq darveshlar oldiga dasturxon yozib taom berib, bor – u yo'g'ini sarf etdi.

Faqat shu paytlar shom safariga ketdim. Bir necha yildan so'ngra qaytib kelib, ul darveshning mahallasiga bordim va oni axtardim.

Topmay, ul yerdagi hozir bor kishilardan so'radim. Alar dedilar:

- Ul darvesh zindondadur.

Faqir oning zindong`a tushganining sababini so`radim.

Alar dedilar:

- O`g`li aroq ichib, mast holida bir kishini o`ldirib qochdi. Emdi oning uchun otasin tutib zindonga solib, oyog`in zanjir bilan band etmashlar.

Men dedim:

- Bu bolani xudodan o`zi tilagan edi.

Qit`a:

Bo`g`oz xotin, ayo, donoyi hushyor,
Tug`ar vaqtda garchi mor tuggay.
Base yaxshidur ul farzanddin kim,
Ani nodon va nohamvor tug`g`ay

O`quvchilar ongida Sa`diy Sheroziyning “**Guluston**” asaridan keltirilgan “**Darvesh**” hikoyati orqali yuzasidan o`quvchilar ota – onaga, kattalarga hurmat tuyg`usini shakllantirishda xizmat qiladi. Ammo asardan keltirilgan “**Darvesh**” hikoyati emas balki, asarda keltirilgan boshqa hikoyat berilsa maqsadga muvofiqdir.

Chunki bunday asosga keltirishdan sabab, hikoyada keltirilgan voqea – hodisalar o`quvchi ongiga spirtli ichimlikka bo`lgan fikr o`quvchilarda har xil kechishi mumkin. Sababi bir o`quvchi bu narsaning salbiy ekanligini tushunsa, yana bir o`quvchi boshqa bir ma`noda qabul qilishi mumkin, ya`ni boshqa bir o`quvchida qiziqish paydo bo`lishga sabab bo`lishi mumkin. Shu nuqtaiy nazardan “**Guluston**” asaridan keltirilgan hikoya o`quvchi yoshi va dunyo qarashiga sabab bo`la oladi.